



## EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

**Óljayeva Mahliyo**

**Po‘latova Zinora**

**Olimova Farzona**

ShDPI Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari  
va huquq ta‘limi yo‘nalishi 2-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolamda ekologik madaniyat nima ekanligi ózi aslida ekologiya deganda biz nimalarni tushunishimiz uning predmeti , maqsadi va vazifalarini nimadan iborat ekanligi haqida bilib olasiz . Ekologik muammolar va uning inson hayotidagi órni ekologik turizm , ekologik texnologiyalar haqida ma' lumotlar keltirilgan.

**Kalit sózlar:** ekologik begubor texnologiyalar, stokgolm konferensiyasi, barqaror rivojlanish konsepsiyasi, ekologik turizm, muammolar, ekotizim ,orol dengizi.

**Абстракт:** В этой статье вы узнаете, что такое экологическая культура, что мы подразумеваем под экологией, каковы ее предмет, цель и задачи. Представлена информация об экологических проблемах и их роли в жизни человека, экологической архитектуре, экологических технологиях.

**Ключевые слова:** экологически чистые технологии, Стокгольмская конференция, концепция устойчивого развития, экологический туризм, проблемы, экосистема, Аральское море.



**Abstract:** In this article, you will learn what ecological culture is, what we mean by ecology, what its subject, purpose and tasks are. Information about ecological problems and their role in human life, ecological architecture, ecological technologies is presented.

**Key words:** environmentally friendly technologies, Stockholm conference, concept of sustainable development, ecological tourism, problems, ecosystem, Aral Sea.

**Kirish.** "Ekologiya" atamasini 1866 - yili nemis zoologi Gekkel taklif etgan. Ekologiyani shakllanishida organizmlarning hayot tarzi órganilgan ishlar, ularning tarqalishi, rivojlanishi hamda ósimliklarning geografik tarqalishini tekshirish katta ahamiyatga ega. "Shuni ta'kidlash joizki biosferaning buzilishi loqayd insonlar faoliyatining natijasi emas. Bu kóproq bakalavr, biznes boshqaruvi, magistr hamda fan doktori unvoniga ega insonlarning faoliyati mas'ulidir" professor Devid Ori. Ekologik madaniyat haqida turli manbalarda, internet sahifalarda turlicha tushunchalar, ta'riflar bor. Kimdir uni atrof-muhitga do'stona munosabat deb qarasa, kimdir tabiatni asrashni tushunadi. Sodda qilib aytganda, ekologik madaniyat ongli ravishda atrofimizni o'rab turgan barcha muhitga nisbatan bizning ijobiy munosabatimiz, ya'ni tabiat va atrof-muhitni asrashni oilada, mahallada, maktabda va jamoalarda shakllanib boradigan qadriyatlarimizdir. Dunyoning qaysi qit'asida yashamang, ekologiyaga munosabat, uni asrab avaylash doim dolzarb. Muhimi undan faqat yaxshilik yo'lida foydalanish bizni diqqatimizda bo'lishi kerak. Siz ham maktabda, kollejda sinfdoshlaringiz bilan ekologiyani himoyalashga intiling. Eng avvalo, bu tushuncha oila tarbiyasida shakllanadi, ota-onalarimiz buni bizga o'z misollarida o'rgatib boradi. Keyinchalik, maktabga chiqqanimizda biologiya, geografiya, kimyo, fizika kabi fanlar tarkibida atrof-muhit muxofazasi, uni asrab avaylash bo'yicha bilimlarimiz boyitib boriladi.



**Adabiyotlar tahlili va Metadologiya.** Ekologik madaniyat – bu barchamizda ongli ravishda shakllanib boradigan tuyg‘u, va biz uni hayotimiz davomida amaliy harakatlarimiz bilan rivojlantirib borishimiz lozim.

Tabiat - yer, órmonlar, ósimliklar, iqlim, bizni órab turgan atrof muhit. Inson va tabiat bir biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Hozirda ilmiy texnika rivojlangan davrimizda odamlarning atrof muhitga, ekologiyaga ta'siri kuchaygan bir paytda undagi muvozanatni saqlash muhim muammolardan biri hisoblanadi. Respublikamizda tabiatni muhofaza qilish va ekologik muvozanatni saqlash yer, suv, yer usti boyliklari, órmon va hayvonot dunyosi shifobaxsh ósimliklardan tóg‘ri foydalanish va ularni muhofaza qilishda jiddiy kamchiliklar bor. Shu órinda tabiat va jamiyat órtasidagi munosabatlar hozirda qanday darajaga kelgani haqida gapirsak : ótgan asrning 70- yillariga kelib AQSh, Kanada va Yevropa davlatlarida ommaviy turizimning keskin rivojlanishi ham nafaqat tabiiy resurslar inqirozi balki ijtimoiy madaniy resurslarning butun saqlanishiga xavf sola boshlagandi. Bu muammolar "ekologik xavf" nomi bilan atalib, borgan sari kuchaymoqda. Texnika taraqqiyoti davrida tabiiy resurslarning kamayishi tabiat, ekologiya ifloslanib borishi kelajak avlod uchun emas, jamiyat taraqqiyotiga ham ta'sir kórsatmoqda. Hozirgi davrda inson tabiat ustidan tóliq hukumronligini órnatdi. Nemis olimi Ernest Gekkel 1866- yilda ekologiya haqida birinchi bólib fikr yuritgan . Hozirda dunyoviy muammolarimizning eng dolzarbi ham - Ekologiya. Yer biosferasi 2 ming xil kimyoviy birikmalar yoyilgan. Dunyoda har yili 250 ming xil yangi kimyoviy birikmalar sintez qilinadi. Dunyo bóyicha har yili 100 mlrd tonna ruda va mineral yoqilg‘ilar qazib chiqariladi. Hozirgacha 2/3 qism órmonlar yóq qilingan . Oxirgi 200 yil ichida 0,5 mlrd gektar yer xarob qilindi, keyingi 100 yilda dunyoda 67 mln gektar órmon kesilib ketdi. Ifloslangan suvdan iste'mol qilish natijasida har yili dunyoda 5 mln kishi vafot etmoqda . Dunyo okeaniga har yili 10 ming tonna neft tókilmoqda. Bu kabi ishlarning barchasi insoniyat hayotiga ekologiyaga salbiy ta'sir kórsatmoqda. Ózbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning "Ózbekiston XXI asr bósaǵasida, xavfsizlikka tahdid , barqarorlik shartlari va rivojlanish kafolatlari" degan asarida: "Asrlar



tutash kelgan pallada butun insoniyat mamlakatimiz aholisi judda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qól qovushtirib ótirish óz ózini ólimga mahkum etish bilan barobardir" degan edilar. Jamiyat va tabiat órtasidagi oddiy munosabat shakli kishilarni ekologik tizimni buzmaydigan soddalashtirilgan hayot tarzi. Ekologik tizim (Ekotizim) tirik organizimlar ózaro va atrof tabiiy muhit bilan uzviy aloqadorlik qonuniyati asosida bólgan holati.

**Muhokoma.** Tabiiy resurslarning kamayib va yuqolib borishi hamda tabiiy obyektlarning ifloslanishi. Ekotizimning buzilishiga va ekologik inqirozlarning kelib chiqishiga sabab bóladi. Chunki kichik ba katta ekotizimlarning aylanishi zanjirida turgan biron bir tabiiy obyektning yuqolishi yoki uning ekologik xususiyatlarini ifloslanishi natijasida kamayib qolishi tabiatni óz ózini asrash tashqi kuchlarga qarshi turish va qayta tiklanish xususiyatlarini yuqotib quyadi. Ekologik inqiroz - jamiyat va tabiat órtasidagi ózaro munosabat muvozanatining buzilishi va ekotizimning tiklash imkoniyatlari yóqolishi . Bunga misol qilib Orol dengizi va uning atrofini olsak bóladi. Avvallari dunyoda eng katta kóllar toifasiga kirgan Orol dengizi 30-40 yillar ichida eng shór , ifloslangan kóllar toifasida turibdi.

Buning sababi, Amudaryo va Sirdaryo suv rejimining ózgarishi Orolga suv qóyishning 12-13 barobarga kamayib ketishidir. Natijada suv sathi 16 metrga, suv yuzasi 2 barobarga, suv hajmi 4 barobarga kamaydi. Suvdan qurigan yuza 3.3 mln gektarni tashkil qilgan holda deflatsiya (shamol erroziyasi) natijasida tuzlar minglab kilometrgacha bólgan masofada atrof muhitni ifloslantirdi. Amudaryo va Sirdaryo suvlarini ichimlik suvi sifatida foydalanib bólmasligini olimlar isbotlab berdi.

Oldinlari baliqchilik va ov qilish maskani bólgan quyi Amudaryo qurigan qoldiq kóllar va shórlangan tuproqlar maskaniga aylanib qoldi .

**Natijalar.** Mustaqil Ózbekiston Respublikasining ilk bor qabul qilgan qonunlaridan biri Tabiatni muhofaza qilish tógrisidagi qonuni. Bu qonun 9- dekabr 1992- yil ,Ózbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bilan bir qatorda qabul qilingan bólib undagi prinsip va



me' yorlar bilan jamiyat munosabatlari ózaro uyğunlashgan holda bólishini taqozo qiladi . STOKGOLM konferensiyasining qarori bilan butun jahon atrof muhitni muhofaza qilish jamgarmasi tashkil etildi. Jamgarmaga BMTga a' zo barcha davlatlar badal tólovlarini tólab turishi majburiyati yuklandi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi davlatlar va butun dunyo hamjamiyatining xususiyat mohiyat va tarkibiy jihatdan bir me' yorda rivojlantiruvchi qarashlar tizimidir. Rio De Janeyro shahrida bólib ótgan BMTning "Atrof muhit va rivojlanish" konsepsiyasida dunyoning 120 dan ortiq jumladan, Mustaqil davlatlar hamdóstligidan 7 davlat vakillari ishtirok etdigan va 130 ta davlatdan hukumatlarning boshliqlari kelgan. Konferensiyasining maqsadi davlatlarning barqaror rivojlanishi va tinch totuv yashashini ta' minlash uchun ekotizimlarga tushadigan bosimni kamaytirish.

**Xulosa.** Ekologik tarbiya oiladan boshlanadi. Ota-onamiz uyni, hovlini toza tutish, vaqtida shamollatish, gul va daraxtlarni, uy hayvonlarini parvarishlashga o'rgatadi. Turli ne'matlarni iste'mol qilganimizda ular tabiat in'omi ekanini aytib, shunday rizq-nasibani bergani uchun Yaratganga shukronalar aytadi.

Shuningdek, har faslga mos mehnat an'analari va qadriyatlarimiz ham ekologik madaniyatimizni shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, kuz kelishi bilan daraxtlarni butab, xazonlarni to'plab, tok, anjir kabi issiqsevar o'simliklarni o'rab qo'yamiz. Qish oldidan zarur meva va sabzavotlarni g'amlaymiz. Bahor kelishi bilan yalpiz, ismaloq, jag'-jag' kabi barra ko'katlardan darmon sifatida turli pishiriqlar tayyorlanadi. Ko'klamni qutlab, Navro'z bayrami o'tkaziladi. Ariq-zovurlar, tomorqalar tozalanadi va hokazo. Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari orqali, mahalla, ma'naviyat, tabiatni himoya qilish faollari tomonidan olib boriladigan targ'ibot va tushuntirish ishlari ham ekologik madaniyatni oshirishda muhim o'rin tutmoqda. Bularning barchasi hayvonlar, o'simliklar — butun tabiat biz mansub bo'lgan tiriklik olamining bir bo'lagi, ular ham yashashga, o'zidan zurriyod qoldirishga haqli ekanini anglashga xizmat qiladi. Ana shu haqiqat ekologik madaniyatning mohiyatini tashkil etadi. Shu haqiqatni anglagan inson tabiatni asrashga



intiladi, yovuz kimsalarning uning ustidan zo'ravonlik qilishiga yo'l qo'ymaslik uchun kurashadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <http://akademiyafvv.uz/ru/post/gifyukyujufyummyu>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/jamiyatda-ekologik-madaniyatning-shakllanish-omillari>
3. ЭКОЛОГИК ТАЪЛИМДАН БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ ТАЪЛИМИ САРИ.  
Kitob k vebsterning "Rethink, refuse..."
4. Barqaror rivojlanishning geokologik jihatlar A. N. Nigmatov, B. Nikqadamboyeva
5. Ekologik boshqaruv monografiya. Asqar N. Sherzod M. Baxtiyor K.
6. Ekologiya. Hamdamov I, Bobomuradov Z.E. Hamdamova
7. Omonov, Bahodir Nurillayevich. "MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA–MUAMMOLAR YECHIMINING ASOSIY OMILI" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 4.21 (2024): 529-535.
8. Очилова, Гўзал Араловна. "Чучук Сув Танқислиги Муаммосининг Марказий Осиёга Хавфи. Омонов Баходир Нуриллаевич"
9. Омонов, Баходир Нуриллаевич. "Идейно-политический путь просветительского и джадидского движения" Gospodarka i Innowacje. 44 (2024): 235-242.